

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>X.X.Abduraxmonov</b>	
Yengil atletika mashqlari yordamida maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini oshirish .....	199
<b>B.B.Umarov</b>	
Abu Bakr narshaxiy asarida Buxoro shahri tavsifi.....	203
<b>R.Mardonov</b>	
G'arb va sharq falsafasining pedagogik asoslari: tahlil va muhokama .....	207
<b>X.O'.Samatov</b>	
Tasavvufda tariqat a'zolarining jamoadan alohidalanishi .....	210
<b>Z.A.Boboyeva</b>	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish usullari.....	217
<b>G.U.Radjabova</b>	
Ta'lim tizimi va ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari .....	220
<b>N.N.Bobojonov</b>	
Talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....	226
<b>E.S.Yuldashyev</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish modeli .....	231
<b>N.V.Karimova</b>	
Farg'ona vodiysi antik davr shahar topografiyasini o'rganilishiga oid.....	236
<b>A.M.Toshpo'latov</b>	
Yoshlarni harbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi. ....	241
<b>I.A.Maxmudova</b>	
Talabalarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masala sifatida .....	247
<b>A.N.Qosimov</b>	
Umumiy o'rta maktab o'quvchilari harakat faolligi va jismoniy tarbiyaga qizishini o'rganish .....	250
<b>F.Sharipova</b>	
Birinchi bosqich talabalariga klinik lug'atni o'rgatish .....	255
<b>G.Ulug'bekova, Sh.Adhamov</b>	
7-12 yoshdagi bolalarda yuzning fizionomik balandligi o'sish dinamikasi .....	260
<b>Z.Hamrayeva</b>	
Qisqa masofalarga yugurishda qizlarda tezlik va quvvat fazilatlarini rivojlantirish metodikalari .....	263
<b>U.Jabborov</b>	
11-12 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida voleybol o'ynashning texnikaviy usullari .....	269
<b>M.Kataeva</b>	
Ta'lim jarayonida mobil ta'limning o'rni va ahamiyati .....	275
<b>O.Yadgarova</b>	
Shaxsni o'rganishda proyektiv metodikalarning diagnostik imkoniyatlari .....	279
<b>I.Imomov</b>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni pedagogik tashxis etish .....	283
<b>M.Babakulova, M.Radjabova</b>	
Interfaol ta'lim texnologiyalari yordamida xitoy tilini o'rganish ko'nikmalarini oshirish .....	288
<b>X.Tojiyev</b>	
Bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning texnologik - pedagogik shart-sharoitlari .....	292
<b>D.Buranova</b>	
Tibbiyot uchun kommunikativ ingliz tili o'qitishning samarali metodi sifatida .....	300
<b>D.Yo'ldosheva</b>	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari .....	303
<b>G.Abdullayeva</b>	
Psixologiya – chet tillarini o'rganishning asosiy jihati .....	308

## YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING MA'NAVY-AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

### МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

### METHODS OF FORMING SPIRITUAL AND MORAL CULTURE OF YOUTH IN THE NEW UZBEKISTAN

**Boboyeva Zulfiya Akbarjonovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>**Boboyeva Zulfiya Akbarjonovna**

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

#### **Annotasiya**

*Mazkur maqolada yangi O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish usullari, san'at va axloqning bosh mavzui inson ekanligi, san'at insonning maqsad-manfaatlari, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari nuqtai nazaridan aks ettirsa, axloq inson ijtimoiy aloqa lari va munosabatlarining mag'ziga singib ketadi hamda hayotda, mayyan jamiyatda axloq-odob zarur ekanligi yoritib berilgan.*

#### **Аннотация**

*В данной статье методы формирования духовно-нравственной культуры молодежи в новом Узбекистане, главная тема искусства и этики - человек, если искусство отражает цели и интересы человека, мнения, чувства, внутренние переживания, Нравственность заложена в сердцевине человеческих общественных отношений и взаимоотношений, и разъяснено, что нравственность необходима в жизни и обществе.*

#### **Annotation**

*In this article, the methods of forming the spiritual and moral culture of young people in the new Uzbekistan, the main subject of art and ethics is man, if art reflects the goals and interests of a person, opinions, feelings, inner experiences, Morality is embedded in the core of human social relations and relationships, and it is explained that morality is necessary in life and society.*

**Kalit so'zlar:** Axloq va san'at, axloqiy ideal, axloq falsafasi, axloqiy tarbiya, amaliy ko'nikmalar, axloqsiz yondoshuv, individual sifatlar, iqtisodiy taraqqiyot, ta'lim standartlari, ilmiy-metodik, sub'yektiv yangilik.

**Ключевые слова:** навыки педагогов, воспитание и развитие, воспитание и обучение, практические навыки, непрерывное образование, индивидуальные качества, экономическое развитие, образовательные стандарты, воспитание и обучение, научно-методические, субъектные инновации.

**Key words:** sports, folk traditional values, intercultural relations, practical skills, continuous education, individual qualities, economic development, educational standards, education and training, scientific-methodical, subjective innovation in students.

## **KIRISH**

Axloq bilan san'atning o'zaro aloqalari haqida gap ketganda, eng avvalo, ularning et bilan tirnoq tarzidagi yaqinlikka ega ekanini ta'kidlamoq lozim. Chunki har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi in'ikos etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rtaga tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shoxtomiri hisoblanadi. Masalan, Alisher Navoiyning Farhodi, Shirini, Shekspirning Romeosi, Julettasi, Oybekning Navoiysi mazkur mualliflar asarlaridagi axloqiy ideallardir. Ularsiz Navoiy, Shekspir va Oybek asarlarini tasavvur qilish mumkin emas.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Shunisi ham borki, ba'zi san'at asarlarida axloqiy idealga duch kelmaydi kishi, hatto biror-bir ijobiy qahramonni ham uchratmaydi - asar boshdan-oyoq salbiy badiiy qiyofalar turish-turmushini aks ettirishga bag'ishlanadi. Bunday badiiy qiyofalarni muallif o'z zamonasi erishgan axloqiy daraja nuqtai nazaridan turib yaratadi. Misol tariqasida Bayronning «Beppo» dostonini, Gogolning «O'lik jonlar», Zavqiyning «Hajvi ahli rasta», Abdulla Qodiriyning «Kalvak maxzumning xotira daftaridan» asarlarini keltirish mumkin. Bu asarlarda axloqiy muammolar, yuksak axloqiylik masalasi avvalgi misollardagidek bevosita emas, balki bilvosita - satirik usul orqali o'rtaga tashlanadi.

Bundan tashqari, soʻz sanʼatida, taʼbir joiz boʻlsa, oʻziga xos «axloqiy janrlar» mavjud. Ularni xalq ogʻzaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham uchratish mumkin: maqol, matal, hikmatlar, hikoyatlar, rivoyat, masal, pandnoma va h.k. shular jumlasidandir. Umuman olganda, axloqsiz badiiy asarning boʻlishi mumkin emas, barcha sanʼat asarlari uchun axloqiylik umumiy zamin ahamiyatiga ega. Ayni paytda sanʼat Axloq falsafasi targʻibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng qulay vositasi sifatida ham namoyon boʻladi. Chunonchi, badiiy adabiyotning, kino sanʼati, tasviriy sanʼat va teatr sanʼatining, ayniqsa, bu borada ahamiyati beqiyos. Bu sanʼat turlari yoshlarda axloqiy idealning shakllanishida katta xizmat qiladi. Chunonchi, «urush-urush» oʻyinlarida bolalarning mard, jasoratli, matonatli, vatanparvar va halol amerikalik hindular sardoriga, Alpomishga, Goʻroʻgʻliga va boshqa xalq qahramonlariga taqlidi fikrimizning dalilidir.

Sanʼat va axloq oʻzaro munosabatlari estetikada oʻzak masalalardan biri boʻlib, bu masalaga uch uslubda yondoshiladi. Birinchisi «axloqiylik» uslubi deyiladi. Bu uslub Ovrupo nafosatshunosligidagi yunonlar, jumladan Aflotun, yangi lavrda esa Russo va L.N. Tolstoy ijodida kengroq va chuqurroq ishlab chiqilgan. «Axloqiylik»ning mohiyati shundaki, uning targʻibotchilari tarixan turli davrlarda yashaganiga qaramay, badiiy ijodni axloq-odobga boʻysundirish, ezgulikni sanʼatning birdan-bir va eng oliy maqsadi sifatida targʻib etishdir.

### NATIJALAR

Ikkinchi yondoshuv sanʼatni axloqdan «ozod qilish» uslubidir. Dastavval qadimgi dunyo tanazzuli paytida vujudga kelgan bu yondoshuv Ovrupoda rivojlangan kapitalistik jamiyat bagʻrida mustaqil nafosatli oqimga ajralib chiqdi. Dastlabki paytlarda «axloqsiz» yondoshuv sanʼatga Ovrupo burjua isteʼmolchiligi ruhiga qarshi norozilik tarzida, yaʼni sanʼatni hukmron doiralar axloqi va odobi qoidalariga boʻysundirishga qarshi kurashish ruhida vujudga keladi. Bu hol Oskar Uayld, Edgar Po, Bodler kabi ijodkorlar asarlarida aks ettirilgan. XIX asr oxirlaridan boshlab oshkora estetik axloqsizlik keng targʻib qilina boshlandi. Masalan, olmon faylasufi F. Nitsshe axloqiylik ruhi sanʼat erkinligini boʻgʻadi, sanʼat ezgulikdan ham, yozuvlikdan ham mustasno boʻlishi kerak, deb uqtirgan edi. Uchinchi yondoshuv-sanʼatda axloqiylik bilan «axloqsizlikni birlashtirish uslubidir. Bu uslubni ilk bor Arastu nazariy jihatdan asoslagan. Keyinchalik u inqilobiy demokratik oqim tarzida qaror topdi. Mazkur badiiy ijod uslubi mohiyatida sanʼatning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini yuksak baholash mavjud boʻlib, unda axloqiy ibtido estetik orzuga nisbatan tashqi qobiq vazifasini emas, balki uning ichki tarkibiy magʻzini ifoda etadi. Bu uslubdagi yondoshuvga koʻra, sanʼat axloqiylikning estetik maktabi boʻlib xizmat qiladi, sanʼat asarlarida badiiylik boʻlmasa, u axloqiylikdan mahrum boʻladi. Boshqacha aytganda, badiiylik hamma vaqt axloqiylikni, axloqiylik esa yuksak darajadagi nafosatli didni taqozo etadi.

### MUHOKAMA

Darhaqiqat, maʼnaviy tarbiyani va axloq tarbiyani tashkil etuvchi va uning mohiyatini yoritib beruvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: a) axloq va odob; b) shular asnosida, amaliy mehnat jarayonida yuzaga kelgan bilim, ilm, amaliy malakalar, isteʼdod, qobiliyat; v) axloqiy, ilmiy yetuklikning natijasi boʻlgan imon, eʼtiqod, vijdon, insof, ixlos; g) inson bilimlari, amaliy tajribasini umumlashtirish faoliyatiga qaratilgan dunyoqarash va mafkuradir.

Maʼnaviy- axloqiy tarbiya – millat va jamiyatning kuch-qudrati hisoblanib, u har doim boyib boradi. Maʼnaviy madaniyat oʻziga xos takrorlanmas ijtimoiy-tarixiy hodisa boʻlib, har bir millatga tegishli va chuqur tarixiy ildizlarga ega. Respublikamiz mustaqilligi oʻquvchi-yoshlarda maʼnaviy tarbiyani shakllantirish uchun muhim shart-sharoitlar, imkoniyatlarni yaratdi. Oʻquvchi-yoshlarda milliy oʻzlikni anglash, millatga, uning tarixiga daxldorlik tuygʻusini shakllantirib bormoqda.

Oʻquvchi yoshlarda maʼnaviy axloqiy tarbiyani shakllantirishda insonning aqliy va ruhiy jihatlarini uygʻun rivojlantirishga eʼtibor berish maqsadga muvofiq. Aqliy va ruhiy imkoniyatning ustuvor boʻlishi oʻquvchi-yoshlarda maʼnaviy madaniyat-ning kutilgan darajada shakllanishiga olib keladi. Zero, maʼnaviy tarbiya – oʻquvchi-yoshlar axloqiy yetukligining muhim mezon. Maʼnaviy madaniyat oʻquvchi-yoshlarni har tomonlama kamolotga yetkazish, milliy ruhini tarkib toptirish va umumijtimoiy tarbiyani olib borishni taqozo etadi.

### XULOSA

Xulosa oʻrnida aytish lozimki, tan olish kerak, eng yangi tariximizda dunyoning koʻplab davlatlarida yoshlar ongiga yot gʻoyalarni qasddan singdirish, jamiyatlarni gʻoyasizlantirish, oʻsib kelayotgan yangi avlod vakillarini vatanparvarlik, kuyunchaklikka emas, befarqlikka daʼvat etish harakatlar ildiz otganiga guvoh boʻldik. Bunda asosiy eʼtibor yoshlarni milliy qadriyatlardan uzoqlashtirish, ularni yengil-yelpi fikrlashga oʻrgatishga qaratildi. Ming afsuski, bu jarayon

O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Bugunga kelib, ayrim yoshlarimizning boshqa madaniyatlar va qadriyatlarni ulug'layotganlari ham haqiqat. Ammo bu kelajak uchun inqiroz qo'ng'irog'i chalinayotganini anglatishini tushunib yetishimiz zarur.

San'at va axloqning bosh mavzui insondir. San'at insonning maqsad-manfaatlari, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari nuqtai nazaridan aks ettirsa, axloq inson ijtimoiy aloqa lari va munosabatlarning mag'ziga singib ketadi. Hayotda, mayyan jamiyatda axloq-odobga aloqador bo'lmagan biror voqea-hodisa sodir bo'lmaydi. Odamlarning o'zaro munosabatlari va muomalalari axloqning bevosita ob'yekti bo'lib xizmat qiladi. San'at qadim davrlardan beri din bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelgan. qadimdan san'at va din aqidaviy bir butunlikni tashkil etgan edi. San'at va din ijtimoiy ongning ma'naviy amaliy shakllari qatoriga mansub bo'lib, ularning ikkalasidam iqtisodiy zamin ustidagi g'oyaviy ustqurmaning «yuqori qavati»dan o'rin egallaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори, 31.12.2019 йилдаги 1059-сон. <https://lex.uz/uz/docs/4676839>

2.Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Асарлар. 7-жилд. – Т.: «Ўзбекистон», 1999. – 246-б.

3.Эгамбердиева Н.М. Маданий инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ҳамда касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида). / Педагогика фанлари доктори ... дисс. авторефати – Т., 2010. – Б. 3-4.

4.Saydullaeva, A. R. (2022). Gender Factors in Raising the Intellectual and Social Status of Women in Universities. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 103-107.

5.Қуроноф М. Миллий тарбия. – Т.: «Маънавият», 2007. – Б. 28.

6.Абдуллаева Д.С. Миллий тарихий хотиранинг моҳияти ва ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Дисс. ... фал. фан. ном. – Т.: ЎзМУ, 2006. –Б. 35.

7.Ачилдиев А.С. Диалектика национального самосознания и национальной культуры. – Т.: «Университет», 1997. –С. 109.